Ключевые слова: ненаблюдаемая экономика, неформальная экономика, теневая экономика, нелегальная экономика, неформальный сектор, институциональная экономика, экономическая безопасность, налоговая политика, экономические реформы.



KIRISH

Jahon iqtisodiyotida so'nggi yillarda globallashuv jarayonlari, iqtisodiy integratsiya va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda.

Natijada, iqtisodiy faoliyat turlari kengayib, ularning barchasini rasmiy tarzda hisobga olish va nazorat qilish murakkablashmoqda. Bu esa iqtisodiyotdagi yashirin aylanmalar yoxud kuzatilmaydigan iqtisodiyot tendensiyasiga o'zining ta'sirini ko'rsatmoqda.

Darhaqiqat, kuzatilmaydigan iqtisodiyot ko'plab mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. U davlat budjet daromadlarining kamayishiga, soliq tushumlarining pasayishiga, raqobat muhitining buzilishiga va iqtisodiy xavfsizlikka tahdid solishi mumkin.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyot bu rasmiy statistikada aks etmaydigan, davlat tomonidan soliqqa tortilmaydigan yoki ro'yxatdan o'tmagan norasmiy, yashirin va qonunga xilof iqtisodiy faoliyatlar majmuidir. Unga uy xo'jaliklari faoliyati, yashirin daromadlar va noqonuniy xizmatlar kiradi.

Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha yashirin iqtisodiyot ulushi o'rtacha 10–12 foiz YAIMni tashkil etadi. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 30–40 foizgacha yetishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Amerikalik iqtisodchi Edgar Feyg kuzatilmaydigan iqtisodiyotni davlat statistika tizimida qayd etilmagan, hisobga olinmagan yoki yashirilgan iqtisodiy faoliyatlar majmuasi deb ta'riflab, bunday iqtisodiyotga hisobga olinmagan iqtisodiyot, yashirin iqtisodiyot, norasmiy iqtisodiyot, noqonuniy iqtisodiyotni kiritadi. [3]

Avstriyalik iqtisodchi Fridrix Shnayderning fikriga ko'ra "Yashirin (kuzatilmaydigan) iqtisodiyot — bu davlat organlari tomonidan hisobga olinmaydigan va soliq to'lash hamda davlat tartibga solishidan qochish maqsadida yashiriladigan iqtisodiy faoliyatlar yig'indisidir". [4]

Perulik iqtisodchi Ernando de Soto yashirin iqtisodiyotni parallel iqtisodiyot deb atab, qonuniy axborot va mulk huquqi tizimidan tashqarida amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatlar parallel iqtisodiyotni shakllantiradi, deb tadqiqotlar o'tkazgan. [5]

Rus olimasi T.I. Koryagina yashirin iqtisodiyotni davlat nazorati va rasmiy hisob-kitoblardan tashqarida amalga oshiriladigan, jamiyatda moddiy ne'matlar va xizmatlar yaratish hamda taqsimlash bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar majmuasi deb ta'rif bergan. [6]

Xorijiy olimlar fikricha, kuzatilmaydigan iqtisodiyot — bu davlat statistikasi va nazoratidan tashqarida amalga oshiriladigan, soliqlardan yoki tartibga solishdan qochish maqsadida yashirilgan yoki hisobga olinmagan iqtisodiy faoliyatlar majmuasidir.

Shuningdek, kuzatilmaydigan iqtisodiyot sohasida Markaziy Osiyo, shuningdek, O'zbekistonlik olimlar ham tadqiqotlarni amalga oshirgan.

Qozoq iqtisodchisi K. Januzakovning ta'kidlashicha "kuzatilmaydigan iqtisodiyot — bu davlat tomonidan tartibga solinmaydigan yoki rasmiy statistika hisobotlarida to'liq aks etmaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir". [7]

O'zbek iqtisodchisi A. Abdullayevning ta'rifiga ko'ra "Yashirin iqtisodiyot — bu davlat statistika organlari tomonidan hisobga olinmaydigan yoki qasddan yashiriladigan iqtisodiy faoliyat turlari bo'lib, ular natijasida olingan daromadlar rasmiy iqtisodiy aylanmaga kirmaydi". [8]

Iqtisodchi B. Xodiyevga ko'ra kuzatilmaydigan iqtisodiyot — bu davlat tomonidan belgilangan huquqiy va soliq me'yorlarini chetlab o'tib amalga oshiriladigan hamda rasmiy statistik hisobotlarda to'liq aks etmaydigan iqtisodiy faoliyatlar majmuasidir". [9]

O'zbek olimlari ta'riflarida asosiy umumiy jihat shundaki, yashirin (kuzatilmaydigan) iqtisodiyot — davlat nazorati, soliq tizimi va rasmiy statistika hisobotlaridan tashqarida amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatlar yig'indisi sifatida talqin qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasiga ko'ra kuzatilmaydigan iqtisodiyot — doimiy statistika kuzatuvlarida to'liq yoki qisman qamrab olinmagan, shuningdek, statistika ko'rsatkichlarida aks ettirishda bilvosita usullar orqali baholanadigan iqtisodiy faoliyat turlari hisoblanadi. [2]

Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, kuzatilmaydigan iqtisodiyotni to'liq qamrab oluvchi ta'rifni shakllantirdik.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyot — bu davlat statistikasi, rasmiy hisob-kitoblar va iqtisodiy monitoring tizimlarida to'liq aks etmaydigan, shuningdek, davlat nazorati va tartibga solish mexanizmlaridan qisman yoki to'liq tashqarida amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatlar hamda iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir.

U jamiyatda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, tovar ayirboshlash va daromad olish bilan bog'liq, ammo turli sabablarga ko'ra rasmiy iqtisodiyotda qayd etilmaydigan yoki qasddan yashiriladigan iqtisodiy jarayonlarni qamrab oladi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi, uning turlari, vujudga keltiruvchi omillar, ularning oqibatlari hamda bartaraf etish yo'nalishlari, shuningdek, sohalar hamda hududlar kesimida o'zgarish tendensiyalarini chuqur tahlil qilish maqsadida bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi. Jumladan, statistik tahlil, taqqoslama tahlil, ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, analiz va sintez usullari orqali mavzu har tomonlama o'rganildi.

Statistik tahlil usuli – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida kuzatilmaydigan iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, uning dinamikasi va iqtisodiyotga ko'rsatayotgan ta'siri atroflicha tahlil qilindi.


Taqqoslash (qiyosiy) usuli – kuzatilmaydigan iqtisodiyotning sohalar hamda hududlar kesimida miqdori solishtirilib, yashirin iqtisodiyot rivojlanish tendensiyalari va o'ziga xos jihatlari aniqlandi.

Tizimli tahlil usuli – yashirin iqtisodiyotning vujudga kelish omillarini aniqlash maqsadida makroiqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar o'zaro bog'liqlikda kompleks tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar

Yashirin iqtisodiy faoliyatlar ko'p hollarda soliq to'lashdan qochish, davlat tomonidan belgilangan ma'muriy va huquqiy talablarni chetlab o'tish, daromadlarni kam ko'rsatish yoki umuman hisobotga kiritmaslik, shuningdek, faoliyatni rasmiy ro'yxatdan o'tkazmasdan amalga oshirish maqsadida yuzaga keladi.

Shu bilan birga, ayrim hollarda kuzatilmaydigan iqtisodiyot iqtisodiy subyektlarning yuqori soliq yuki, ortiqcha byurokratik to'siqlar, litsenziyalash va ro'yxatdan o'tish jarayonlarining murakkabligi, mehnat bozoridagi cheklovlar yoki iqtisodiy inqirozlar kabi omillar ta'sirida shakllanishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. Kuzatilmaydigan iqtisodiyot turlari¹

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotning turlari quyidagicha tavsiflanadi: norasmiy iqtisodiyot – uy xo'jaliklari yoki jismoniy shaxslar tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmagan holda amalga oshiriladigan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat; yashirin iqtisodiyot – qonun bilan man etilmagan, ammo soliqqa tortilmaslik va qonun hujjatlari talablariga rioya qilmaslik maqsadida davlat organlaridan ataylab berkitilgan iqtisodiy faoliyat; noqonuniy iqtisodiyot – qonun bilan ta'qiqlangan yoki vakolatga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan amalga oshirilganda qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka olib keladigan iqtisodiy faoliyat turlari.

Norasmiy iqtisodiy faoliyat ro'yxatdan o'tmagan holda turli xil tadbirkorlik va ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar faoliyatini o'z ichiga oladi.

Yashirin iqtisodiy faoliyat davlat boshqaruvi organlarida ro'yxatdan o'tgan va hisobotlarida faoliyatini (daromadlarini va boshqa ko'rsatkichlarini) to'liq yoki qisman yashirib ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar (yuridik shaxslar) faoliyatini, shuningdek, davlat boshqaruvi organlarida umuman ro'yxatdan o'tmagan hamda hisobotlar taqdim etmaydigan, ishlab chiqarish jarayonlari nisbatan yuqori darajada tashkil etilgan va yirikroq ko'lamlarda faoliyat yuritadigan korxonalar (jismoniy shaxslar) faoliyatini o'z ichiga oladi.

Noqonuniy iqtisodiy faoliyat qonun bilan ta'qiqlangan tovarlar (xizmatlar)ni ishlab chiqarish, sotish va saqlash hamda qonun bilan ruxsat etilgan, ammo tegishli ruxsatnomasi bo'lmagan ishlab chiqaruvchilar tomonidan amalga oshirilganda noqonuniy bo'ladigan faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Ularga qurolyarog' savdosi, giyohvand moddalar yetishtirish va sotish, fohishalik, kontrabanda, maxsus ruxsatnomaga ega bo'lmagan holda amalga oshiriladigan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati (alkogol mahsulotlari ishlab chiqarish, tibbiy xizmatlar ko'rsatish, brakonerlik) va boshqalar kiritiladi.

Odatda, noqonuniy faoliyat ko'lamining iqtisodiyotdagi talab va taklif darajasiga, shuningdek, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar – iqtisodiy o'sish, bandlik, inflyatsiyaga ta'siri kichik bo'ladi. Shu sababli, xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantirishda noqonuniy iqtisodiy faoliyatni qamrab olish zarurati yo'q deb hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi bo'yicha noqonuniy iqtisodiy faoliyat baholanmaydi.

1 Muallif ishlanmasi



Yashirin iqtisodiyotning yuzaga kelish omillari yashirin (kuzatilmaydigan) iqtisodiyotning shakllanishiga turli iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatadi.

Yuqori soliq yuki mavjud bo'lganda tadbirkorlar va jismoniy shaxslar daromadlarining bir qismini yashirishga harakat qiladi, bu esa rasmiy hisobotlarda daromadlarni kamaytirishga yoki umuman hisobot bermaslikka olib keladi va natijada iqtisodiy faoliyatning bir qismi yashirin iqtisodiyotga o'tadi.

Ortiqcha ma'muriy tartibga solish, ya'ni biznesni ro'yxatdan o'tkazish, litsenziya olish va hisobot topshirish jarayonlarining murakkabligi tadbirkorlarni rasmiy sektordan chetga chiqishga majbur qiladi va norasmiy faoliyat kengayadi.

Korrupsiya darajasining yuqoriligi mavjud bo'lgan sharoitda ayrim tadbirkorlar rasmiy qoidalarga amal qilmasdan, norasmiy yo'llar orqali faoliyat yuritishni afzal ko'radi, bu esa yashirin iqtisodiyotning kengayishiga xizmat qiladi.

Ishsizlik darajasi yuqori bo'lganda aholi rasmiy ish o'rinlari topa olmagan sababli norasmiy mehnat bozoriga murojaat qiladi va bu norasmiy iqtisodiyot hajmini oshiradi.

Aholi daromadlarining pastligi odamlarni qo'shimcha daromad topish maqsadida norasmiy faoliyat bilan shug'ullanishga undaydi, bu holat ayniqsa xizmat ko'rsatish sohasida keng tarqalgan.

Davlat nazoratining zaifligi iqtisodiy subyektlarga qonun talablarini chetlab o'tishni osonlashtiradi va yashirin iqtisodiyotning o'sishiga olib keladi.

Qonunchilik tizimining murakkabligi tadbirkorlar uchun qoidalarni to'liq tushunish va ularga rioya qilishni qiyinlashtiradi, bu esa ba'zan norasmiy faoliyatni rag'batlantiradi.

Naqd pul aylanmasining yuqoriligi operatsiyalarni nazorat qilishni murakkablashtiradi va ayrim iqtisodiy operatsiyalar rasmiy hisob-kitoblardan tashqarida amalga oshirilishiga sabab bo'ladi.

Iqtisodiy inqirozlar va beqarorlik davrlarida rasmiy iqtisodiyotda ish o'rinlari qisqaradi va biznes faolligi pasayadi, natijada ayrim subyektlar norasmiy sektorga o'tadi.

Tadbirkorlik muhitining yetarlicha rivojlanmaganligi kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining sustligi bilan bog'liq bo'lib, bu holat tadbirkorlarni norasmiy faoliyatni afzal ko'rishga undaydi.

Yashirin iqtisodiyotning shakllanishiga bir vaqtning o'zida bir nechta omillar ta'sir qiladi va eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillar yuqori soliq yuki, korrupsiya, davlat nazoratining zaifligi hamda ortiqcha ma'muriy tartibga solish hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgani kabi O'zbekistonda kuzatilmaydigan iqtisodiyot tarkibida norasmiy hamda yashirin iqtisodiyot ko'lami o'lchanib boriladi. Shu sababli aynan kuzatilmaydigan iqtisodiyot tarkibidagi norasmiy va yashirin iqtisodiyotning 2021–2025-yillardagi tendensiyasini tahlil qilamiz (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida jami norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmi ² (trln. so'mda)

T/r	Tarmoq nomi	2021-yil		2022-yil		2023-yil		2024-yil		2025-yil	
		yashirin	norasmiy	yashirin	norasmiy	yashirin	norasmiy	yashirin	norasmiy	yashirin	norasmiy
Jami		63	243,5	77,5	271,3	98,7	320,2	122	406,2	147	351
1.	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	0	118,9	0	129,9	0	152,7	0	173,1	0	191,7
2.	Sanoat	11	12,4	10,4	11,8	11,7	14,5	14,1	28,1	16,5	27,9
3.	Xizmatlar	44	92,5	60,0	107,0	79,0	126,4	98,3	174,5	121,2	110,4
4.	Qurilish	8	19,7	7,1	22,6	8,0	26,6	9,7	30,5	9,3	21,1

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmi 2021–2025-yillar davomida umumiy tendensiya sifatida o'sish dinamikasini namoyon etgan. Xususan, yashirin iqtisodiyot hajmi 2021-yilda 63 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 147 trln so'mga yetgan. Bu esa ushbu davr mobaynida yashirin iqtisodiyot hajmi qariyb ikki barobardan ziyod oshganini ko'rsatadi. Norasmiy iqtisodiyot hajmi esa 2021-yilda 243,5 trln so'mni tashkil etgan holda 2024-yilga kelib 406,2 trln so'mgacha

2 Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.



o'sgan, 2025-yilda esa 351 trln so'mgacha biroz kamaygani kuzatiladi. Bu holat ayrim iqtisodiy faoliyat turlarini rasmiylashtirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar ta'siri bilan izohlanishi mumkin.

Tarmoqlar kesimida tahlil qilinganda, norasmiy iqtisodiyotning eng katta qismi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasiga to'g'ri kelishi kuzatiladi.

Jumladan, mazkur tarmoqda norasmiy iqtisodiyot hajmi 2021-yilda 118,9 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 191,7 trln so'mga yetgan. Bu holat qishloq xo'jaligida aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari, norasmiy mehnat munosabatlari va mayda ishlab chiqarish faoliyati keng tarqalgani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ushbu tarmoqda yashirin iqtisodiyot ko'rsatkichlari qayd etilmagani asosan faoliyatning norasmiy shaklda amalga oshirilishi bilan bog'liq.

Xizmatlar sohasi ham yashirin va norasmiy iqtisodiyot ulushi yuqori bo'lgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Mazkur sohada yashirin iqtisodiyot hajmi 2021-yilda 44 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 121,2 trln so'mgacha o'sgan. Bu esa xizmatlar sohasidagi ayrim iqtisodiy operatsiyalar, xususan savdo, transport, maishiy xizmat ko'rsatish va boshqa xususiy xizmat turlarining rasmiy hisob-kitoblarda to'liq aks etmasligi bilan izohlanadi. Norasmiy iqtisodiyot hajmi ham mazkur tarmoqda ancha yuqori bo'lib, 2021-yilda 92,5 trln so'mdan 2024-yilda 174,5 trln so'mgacha o'sgan, keyingi yilda esa ma'lum darajada kamaygan.

Sanoat tarmog'ida ham yashirin va norasmiy iqtisodiyot ma'lum darajada mavjud bo'lib, 2021–2025-yillar davomida ularning hajmi asta-sekin o'sgani kuzatiladi. Masalan, yashirin iqtisodiyot 11 trln so'mdan 16,5 trln so'mgacha oshgan bo'lsa, norasmiy iqtisodiyot 12,4 trln so'mdan 27,9 trln so'mgacha ko'paygan. Bu holat ayrim kichik ishlab chiqarish subyektlarining norasmiy faoliyat yuritishi yoki hisobotlarni to'liq taqdim etmasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Qurilish tarmog'ida esa yashirin va norasmiy iqtisodiyot ko'rsatkichlari nisbatan past darajada bo'lsa-da, ularning mavjudligi saqlanib qolmoqda. Ushbu sohada 2021-yilda yashirin iqtisodiyot 8 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 9,3 trln so'mga yetgan. Norasmiy iqtisodiyot esa 19,7 trln so'mdan 21,1 trln so'mgacha oshgan. Bu holat qurilish ishlarida vaqtinchalik ishchi kuchidan foydalanish va ba'zi operatsiyalarning rasmiy hisobotlarda to'liq aks etmasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, jadval ma'lumotlari O'zbekiston iqtisodiyotida norasmiy sektor ulushi yashirin sektorga nisbatan ancha katta ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasi norasmiy iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil etadi. Shu bilan birga, xizmatlar sohasi yashirin iqtisodiyotning eng yuqori darajada namoyon bo'ladigan tarmog'i hisoblanadi. Bu esa mazkur sohalarda iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish va hisob-kitoblarni shaffoflashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tahlil davomida har bir hududda kuzatilmaydigan iqtisodiyotning rivojlanish dinamikasi, uning o'sish yoki kamayish omillari, hududiy tafovutlar hamda ularga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar kompleks ravishda baholandi (2-jadval).

2-jadval. Hududlar bo'yicha kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi hamda YAIM (YAHM)dagi ulushi³

T/r	Hudud nomi	2023-yil		2024-yil		2025-yil	
		hajmi (mlrd. so'm)	YalMda ulushi %	hajmi (mlrd. so'm)	YalMda ulushi %	hajmi (mlrd. so'm)	YalMda ulushi %
	Jami kuzatilmaydigan iqtisodiyot	418 905,3	34,8	527 360,9	35,8	505 650,1	26,9
1	Qoraqalpog'iston	17 723,4	45,3	21 774,0	47,0	20 914,0	38,7
2	Andijon	35 155,0	45,5	42 355,0	45,5	38 650,1	35,9
3	Buxoro	30 115,6	49,2	36 078,6	49,1	34 235,3	39,5
4	Jizzax	18 397,3	49,2	21 596,8	49,6	21 792,0	41,2
5	Qashqadaryo	36 705,0	53,5	44 451,2	52,9	42 607,3	43,1
6	Navoiy	18 562,0	21,0	22 801,5	17,5	21 932,3	13,1
7	Namangan	30 609,8	52,6	38 076,0	53,0	37 692,1	44,1

3 Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.



8	Samarqand	41 092,9	49,4	51 443,5	49,5	48 672,9	40,1
9	Surxondaryo	26 548,9	56,5	31 782,1	56,2	30 596,7	46,2
10	Sirdaryo	9 401,3	39,2	11 424,0	39,9	11 873,0	33,2
11	Toshkent v.	42 448,7	35,0	53 672,2	35,5	47 746,9	26,5
12	Farg'ona	37 478,5	48,0	46 010,1	49,2	42 758,5	38,4
13	Xorazm	23 529,1	53,9	29 439,6	54,9	28 421,4	45,1
14	Toshkent sh.	51 109,3	23,8	76 421,6	25,2	70 145,8	19,1

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida hududlar kesimida norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmi 2023–2025-yillar davomida ma'lum dinamik o'zgarishlarni namoyon etgan. 2023-yilda jami yashirin va norasmiy iqtisodiyot hajmi 418,9 trln so'mni tashkil etib, yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM) ulushi 34,8 foizga teng bo'lgan. 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 527,4 trln so'mgacha oshib, ulushi 35,8 foizni tashkil etgan. 2025-yilda esa umumiy hajm 505,6 trln so'mgacha biroz kamayib, YAIMdagi ulushi 26,9 foiz darajasiga tushgan.

Bu holat 2024-yilda norasmiy iqtisodiyot faoliyatining ma'lum darajada kengayganini, 2025-yilda esa ayrim iqtisodiy faoliyatlarni rasmiylashtirish natijasida uning qisqarganini ko'rsatishi mumkin.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, 2023-yilda norasmiy va yashirin iqtisodiyotning eng katta hajmi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelib, 51,1 trln so'mni tashkil etgan. Bu jami respublika ko'rsatkichining taxminan 12,2 foiziga teng. Shuningdek, Samarqand viloyatida 41,1 trln so'm (9,8%), Toshkent viloyatida 42,4 trln so'm (10,1%) hamda Farg'ona viloyatida 37,5 trln so'm (8,9%) norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmi qayd etilgan. Eng past ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida kuzatilib, u 9,4 trln so'mni yoki jami ko'rsatkichning taxminan 2,2 foizini tashkil etgan.

2024-yilda norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmi deyarli barcha hududlarda oshgani kuzatiladi. Masalan, Toshkent shahrida bu ko'rsatkich 76,4 trln so'mgacha yetgan bo'lib, jami respublika ko'rsatkichining taxminan 14,5 foizini tashkil etgan. Samarqand viloyatida 51,4 trln so'm (9,8%), Toshkent viloyatida 53,7 trln so'm (10,2%), Farg'ona viloyatida esa 46 trln so'm (8,7%) norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmi qayd etilgan. Shu bilan birga, ayrim hududlarda YAIMdagi ulushi ancha yuqori bo'lgan. Masalan, Surxondaryo viloyatida 56,2 foiz, Xorazm viloyatida 54,9 foiz, Namangan viloyatida 53 foiz va Qashqadaryo viloyatida 52,9 foizni tashkil etib, ushbu hududlarda norasmiy iqtisodiy faoliyat ulushi nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatadi.

2025-yil ma'lumotlariga ko'ra, jami norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmi 505,6 trln so'mni tashkil etgan. Hududlar kesimida eng katta ulush yana Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelib, 70,1 trln so'mni yoki umumiy ko'rsatkichning taxminan 13,9 foizini tashkil etgan. Shuningdek, Samarqand viloyati 48,7 trln so'm (9,6%), Toshkent viloyati 47,7 trln so'm (9,4%), Farg'ona viloyati 42,7 trln so'm (8,5%) va Qashqadaryo viloyati 42,6 trln so'm (8,4%) bilan yuqori ko'rsatkichlarni qayd etgan. Eng past ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida saqlanib qolib, 11,8 trln so'mni yoki jami ko'rsatkichning taxminan 2,3 foizini tashkil etgan.

Shu bilan birga, YAIMdagi ulushi bo'yicha ayrim hududlarda norasmiy iqtisodiyotning salmog'i yuqori bo'lib qolmoqda. Xususan, 2025-yilda Surxondaryo viloyatida 46,2 foiz, Xorazm viloyatida 45,1 foiz, Namangan viloyatida 44,1 foiz, Qashqadaryo viloyatida 43,1 foiz va Jizzax viloyatida 41,2 foizni tashkil etgan. Aksincha, Navoiy viloyatida 13,1 foiz va Toshkent shahrida 19,1 foiz bilan nisbatan past ko'rsatkichlar qayd etilgan. Bu holat sanoatlashgan va yirik korxonalar ulushi yuqori bo'lgan hududlarda iqtisodiy faoliyatning ko'proq rasmiy sektorda amalga oshirilishi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmi hududlar bo'yicha bir xil taqsimlanmagan. Ayrim hududlarda uning YAIMdagi ulushi 40–50 foizgacha yetib, iqtisodiy faoliyatning katta qismi norasmiy sektorda amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Shu sababli iqtisodiyotni legallashtirish, tadbirkorlikni rasmiylashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabrda "Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-246-son⁴ Farmoni bilan yalpi ichki mahsulotda kuzatilmaydigan (norasmiy va yashirin) iqtisodiyot ulushini 2030-yilgacha 23 foizga tushirish, savdo va xizmat ko'rsatishda to'lovlarni naqd pulsiz hisob-kitob qilish ulushini 75 foizga yetkazish belgilangan.

4 <https://lex.uz/uz/docs/-7897630>



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar va tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, kuzatilmaydigan iqtisodiyot asosan soliq yukining yuqoriligi, ma'muriy tartib-taomillarning murakkabligi, ishsizlik darajasi, aholi daromadlarining pastligi, iqtisodiy nazoratning yetarlicha samarali emasligi va institutsional muhitning to'liq shakllanmaganligi kabi omillar ta'sirida yuzaga keladi.

Tahlil qilingan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmi yillar davomida ma'lum darajada o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, tarmoqlar kesimida qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasida norasmiy iqtisodiyotning ulushi yuqori ekanligi kuzatiladi. Qishloq xo'jaligi sohasida norasmiy faoliyat asosan aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari va norasmiy mehnat munosabatlari bilan bog'liq bo'lsa, xizmatlar sohasida ayrim xizmat turlarining rasmiy hisob-kitoblarda to'liq aks etmasligi bilan izohlanadi. Shuningdek, sanoat va qurilish tarmoqlarida ham ma'lum darajada yashirin va norasmiy iqtisodiy operatsiyalar mavjudligi aniqlandi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmi hududlar bo'yicha turlicha taqsimlangani kuzatildi. Ayrim hududlarda uning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 40–50 foizdan ortiqni tashkil etadi. Xususan, Surxondaryo, Xorazm, Namangan, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida norasmiy iqtisodiyot ulushi yuqori darajada ekanligi qayd etildi.

Aksincha, sanoatlashgan hududlar hisoblangan Navoiy viloyati va Toshkent shahrida bu ko'rsatkich nisbatan past ekanligi kuzatiladi. Bu holat yirik sanoat korxonalari va rasmiy iqtisodiy faoliyat ulushining yuqoriligi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, kuzatilmaydigan iqtisodiyot mamlakat iqtisodiyotida muayyan darajada ahamiyatga ega bo'lib, bir tomondan aholi bandligini ta'minlash va iqtisodiy faollikni saqlab turishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan davlat budjetiga tushumlarni kamaytiradi, raqobat muhitini buzadi va iqtisodiy siyosatni samarali amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushini kamaytirish va iqtisodiy faoliyatni rasmiy sektorga jalb etish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Soliq tizimini yanada soddalashtirish va tadbirkorlar uchun qulay soliq muhitini shakllantirish orqali iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirishni rag'batlantirish.

2. Biznesni ro'yxatdan o'tkazish, litsenziyalash va hisobot topshirish jarayonlarini raqamlashtirish va ma'muriy to'siqlarni qisqartirish.

3. Norasmiy mehnat munosabatlarini qisqartirish maqsadida mehnat bozorini tartibga solish va rasmiy ish o'rinlarini ko'paytirish.

4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy faoliyatni legal sektorga jalb qilish.

5. Soliq va statistika organlari faoliyatida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish orqali iqtisodiy operatsiyalar shaffofligini oshirish.

6. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va rasmiy iqtisodiy faoliyatning afzalliklari bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish.

7. Hududlar kesimida norasmiy iqtisodiyot ulushi yuqori bo'lgan viloyatlarda maxsus iqtisodiy dasturlar va islohotlarni amalga oshirish.

Ushbu chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish natijasida mamlakat iqtisodiyotida norasmiy va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, iqtisodiy faoliyatni legalashtirish va davlat budjet daromadlarini oshirish imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.12.2025 yildagi "Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-246-son Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-7897630>
2. Milliy statistika qo'mitasi, Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha uslubiy nizom, T-2024 й.
3. Feige E. L. Reflections on the Meaning and Measurement of Unobserved Economies. Journal of Tax Administration, 2016.
4. Schneider F. Shadow Economy and Underground Economy Studies;
5. De Soto H. The Mystery of Capital, 2000.
6. Koryagina T.I. Tenevaya ekonomika: analiz, otsenki, prognozi. – Moskva, 1991.
7. Januzakov K. Ekonomicheskaya bezopasnost i tenevaya ekonomika. – Almati, 2010;
8. Abdullayev A. O'zbekiston iqtisodiyotida yashirin iqtisodiyot muammolari. – Toshkent, 2005;
9. Xodiyev B.Yu. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2017;
10. Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari;
11. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari;
12. Soliq qo'mitasi ma'lumotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
